

TAQLID SO‘ZLARING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Xojiyeva Muxlisa

Alfraganus universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda nafaqat tilni o‘rganish, tahlil etish orqali o‘rganish balki, tilni markazida turuvchi inson omiliga ham uning madaniyatidan kelib chiqqan holda tushunishi, idrok qilishi, ko‘rishi, his qilishi ham turli ekanligi ham o‘rganilmoqda. Ushbu maqolamizda taqlid so‘zlarning lingvomadaniy xususiyatlari, turli xalqlarda tovushlarni eshitish va taqlid qilish usullari turlicha ekanligini o‘rganib chiqdik.

Kalit so‘zlar: *Taqlid so‘z, antraposentirik, idrok qilish, lingvomadaniy, madaniy, tovushlar, aspect, jismoniy tovush.*

Kirish. Narsalarning tovushiga va holatiga taqlidni bildirgan so‘zlar taqlid so‘zlar hisoblanadi. Taqlid so‘zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) tovushga taqlid so‘zlar; 2) holatga taqlid so‘zlar. Narsalarning ovozigga taqlidni bildiruvchi so‘zlar tovushga taqlid so‘zlar sanaladi. Masalan, g‘a-g‘a (o‘zdek ovozigga taqlid), di-dit (mashina signaliga taqlid). Narsalarning holatiga taqlidini bildiruvchi so‘zlar holatga taqlid so‘zlar hisoblanadi. Masalan, lip-lip (chiroq holati), jimir – jimir (suv holati). [1]

Nizomiddin Maxmudov taqlid so‘zlarni ”Olamni idrok qilishning boshqacha usuli, taqlid so‘zlar milliy madaniyatni ko‘rsatib beradi”,- deydi. Yer yuzida hayvonlar chiqaradigan tovushlar hammasi bir xil lekin, o‘zbek boshqacha eshitadi, rus boshqacha eshitadi, ingliz boshqacha eshitadi. Masalan: o‘zbek jip-chip, rus sip-sip, ingliz chiv-chiv eshitadi. Shuning uchun o‘zbeklar jo‘ja, ruslar siplata, inglizlar cheeper,- deydi. [2]

Asosiy qism. Taqlidiy so‘zlarning o‘rganishda milliy mentalitet bilan bog‘liq nihoyatda o‘ziga xos holatlarni kuzatish imkonini beradi. Masalan, xo‘rozning qichqirishi o‘zbek tilida qu-qu-qu tarzida bir xil bo‘g‘inni bir necha bor takrorlash orqali ifodalansa, rus tilida ku-ka-re-ku tarzida, ingliz tilida co-co-co-cock tarzida, tilimiz bilan bir oilani tashkil etuvchi turk tilde esa, u-u-ru-u tarzida akslanadi. Itning hurishiga taqlid

soʻz oʻzbek tilida vov-vov, rus tilida av-av, ingliz tilida voof-voof shaklida ifodalanadi. Oʻzbeklarda mushukning tovushiga taqlid asosida ”miyov” soʻzi, rus tilida ”myau”, xitoy tilida esa ”mimi” soʻzi hosil qilinadi. Soat strelkasi tovushiga oʻzbek tilida ”chiq-chiq” tarzida taqlid qilinsa, rus tilida ”tik- tak” tarzida taqlid qilinadi. Yoki idishlar bir-biriga urilganda paydo boʻladigan tovushni ifodalovchi taqlid soʻzlarda ham farq kuzatilad, chars-churs, jarang-jurung (oʻzbekcha), tars-turs (qozoqcha), langlang, hualang-hualang (xitoycha).

Taqlid soʻzlarning lingvomadaniy aspektida tahlil qilinishi yana ham qiziqarliroq. Hech bir til vakillari ularga murojaat qilmay qolmaydi. Oʻzbek tilida qurbaqaning ovozigina ”vaq-vaq” deb taqlid qilinsa, italiyan tilida ”cra-cra”, ingliz tilida ”ribbit”, german tilida ”kwaak”, koreys tilida ”gae-goee”, xitoy tilida ”guo_guo”, yaponiya tilida ”kerokero”, turk tilida ”vrak”, polyak tilida ”kum-kum” falianda tilde ”op-op”, vengraya tilida esa, ”brekeke” deb taqlid qilinadi.

Bu eshitishlarni qarasangiz deyarli barcha tillarda hammasida oʻziga xos tarzda boʻladi va shuning uchun ham Antroposentrik tilshunoslik muhim va etakchi oʻrganish, yoʻnalish sifatida etakchi oʻrinlarga chiqdi. Dunyoda bir til boshqasidan faqat soʻzlarni boshqachakligi bilan emas, balki eshitishni, idrod qilishni, koʻrishni oʻziga xosligi tarzida boʻlishi kerak.[2]. Antroposentrizm – bu ilmiy yoʻnalishda uning asosiy muammosi olam markazi boʻlgan insondir. Antroposentrik ilmiy tadqiqotlarda inson va unga tegishli boʻlgan barcha narsalar (jamiyat, tabiat, madaniyat, bilish va boshqalar) bir-biri bilan chambarchas bogʻliqlikda koʻrib chiqiladi.[3] Nizomiddin Mahmudov esa, Antroposentrik tilshunoslikni – markazida inson turadigan tilshunoslik, tilni egasi bilan oʻrganadigan tilshunoslik,- deb aytadi.

Xulosa. Aytish joizki, biz koʻrib chiqqan tillardagi taqlid soʻzlarni oʻzaro qiyosladik. Natijada esa, bu tillarda ham taqlid soʻzlar mavjudligini, barcha xalqlarda bu taqlidlar turlicha tasnif etilishini koʻrib chiqdik. Taqlid soʻzlar haqidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega boʻldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili [Matn] / N. MAhmudov [va boshq.]. – T: 217. – 160 b.

2.O‘zbek tilining ahamiyati – Nizomiddin Mahmudov|Modul5 akademik https://youtube.com/watch?v=r3ueegYhik4&si=_-YLCKJR7pWgnybz.

3.Antroposentrizm–tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishi sifatida <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/download/6996/5315/5369>.

4. Ismailov, G. M. (2017). Linguocultural Study of Gender Stereotypes in Turkic Phraseology (on the Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages). *Polylinguality and transcultural practices*, 14(1), 85-92.

5. Ismailov, G. Anthropocentrism in phraseological picture of world (on the example of uzbek, kazakh and karakalpak languages). *中国湖州* 2022 № 4 (13), 137.

6. Mirzaevich, G. I. (2026). Ethnic Stereotypes in the Phraseologisms of the Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages. *Asian Journal of Arts and Culture*, 26(1), e23-e23.

7. Xujaev, M. (2020). Mahmudkhuja Behbudiy as a leader of jadid reforms. *The Light of Islam*, 3, 39-47.